

Xorazm viloyat statistika boshqarmasi



2019 yilning yanvar-fevral oylarida Xorazm viloyatida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish


| RAQAMLAR | |
|--|--|
| 1203,5 mlrd.so'm Sanoat ishlab chiqarish hajmi | 114,3 % sanoat ishlab chiqarish indeksi |
| 669,3 mlrd.so'm Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi | 128,4 % o'sish sur'ati |
| 55,6 % Iste'mol tovarlarining jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi | 25,1 % sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi |




Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha, 2019 yilning yanvar-fevral oylarida viloyat korxonalarini tomonidan 1203,5 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarish indeksi 114,3 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – 2,4 % ga, ishlab chiqaradigan (qayta ishslash) sanoat - 16,3 % ga va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish – 16,6 % ni tashkil qildi. Shu bilan birga elektr, gaz, bug' bilan taminlash va havoni konditsiyalash – 8,3 % ga kamayish kuzatildi.

2019 yilning yanvar-fevral oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi.



2018 yilning yanvar-fevral oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi.



Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 0,004 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,0003 % ni tashkil etdi. 2019 yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1151,9 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 95,7% ni tashkil etdi. O'z navbatida sanoatning mazkur tarmog'ida eng yuqori ulushini avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish 41,0%, to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish 29,4%, oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish 15,1 %ni tashkil etganligini ko'rish mumkin.



Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish ulushi - 41,0 %



To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish ulushi - 29,4 %



Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish ulushi - 15,1 %

Ishlab chiqaradigan sanoati (qayta ishlash sanoati)da yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdag'i sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish


| Mahsulot turlari | | <i>2019 yil yanvar-fevral</i> | <i>2018 yil yanvar-fevral</i> |
|---|--|-------------------------------|-------------------------------|
| Gidro elektr stansiyalari ishlab chiqargan elektr energiyasi – mln kVts |  | 29,6 | 52,4 |
| Issiqlik energiyasi – ming Gkal. |  | 45,1 | 37,7 |
| Engil avtomobillar |  | 6720 | 4743 |
| Yuk avtomobilari – dona |  | 1300 | 851 |
| Aroq – ming litr |  | 200 | 200 |
| Uzum vinosi yoki uzum turupini disterlash natijasida olingan spirt nastoykalari konyak spirtidan tashqari – ming litr |  | 3,9 | 4,2 |
| Tabiiy oq va qizil desert uzum vinolari – ming litr |  | 160 | 210,0 |
| Yumshoq bug'doy va spelta uni – tonna |  | 112789,6 | 112751,6 |
| Makaron mahsulotlari va shu kabi xamirdan tayyorlangan mahsulotlar – tonna. |  | 0 | 79,5 |

| Mahsulot turlari | | 2019 yil yanvar-fevral | 2018 yil yanvar-fevral |
|---|--|---------------------------|---------------------------|
| Birinchi navli undan tayyorlangan bug'doy noni, og'irligi 600 gr. (buxanka) – tonna |  | 305,8 | 315,0 |
| Milliy non (yopgan non) – tonna |  | 66 | 42,0 |
| Tozalangan o'simlik yog'i – tonna |  | 4079,0 | 3527,0 |
| Xo'jaliksovuni – tonna |  | 2015 | 1901 |
| Paxta tolasi –tonna |  | 19309 | 22469,0 |
| Paxta chigititonna |  | 30509 | 35263,0 |

Yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, quyidagi mahsulot turlari kamayganini ko'rish mumkin:

1. Gidro elektr stansiyalari ishlab chiqargan elektr energiyasi 22,8 mln kVtsga;
2. Tabiiy oq va qizil desert uzum vinolari 50 ming litrga;
3. Makaron mahsulotlari va shu kabi xamirdan tayyorlangan mahsulotlar 79,5 tonnaga;
4. Birinchi navli undan tayyorlangan bug'doy noni, og'irligi 600 gr. (buxanka) 9,2 tonnaga;
5. Paxta tolasi 3160 tonnaga;
6. Paxta chigitit 4754 tonnaga kamaygan.

Yuqoridagilardan tashqari qolgan mahsulotlar ishlab ciqarish oshganini ko'rish mumkin.




Joriy yilning yanvar-fevral oylarida elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 44,7 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 3,7 % ni) tashkil etdi. Shu bilan birga ishlab chiqarish indeksi 91,7 % ni tashkil etdi.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 6,8 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,6 % ni) tashkil etdi.

Joriy yilning yanvar-fevral oylarida sanoatning mazkur tarmog'ida eng yuqori ulushni, chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo'qotish, o'tilizasiya qilish 5,6 % ni, suv yig'ish, qayta ishslash va taqsimlash esa 1,1 % ni tashkil etdi.




2019 yil yanvar-fevral oylarida shahar va tumanlar kesimida viloyat jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi (% da)



Diagrammada ko'rinib turibdiki, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida ulushi yuqori bo'lgan Xazorasp tumani 46,0 foiz, Urganch shahri 19,0 foiz, Xonqa 7,0 foiz Bog'ot 5,4 foiz, Shovot 5,0 foiz va Gurlan tumani 4,0 foizni va eng past bo'lgan Urganch tumani 2,0 foiz, Xiva tumani 1,0 foiz hamda 0,6 foiz Xiva shahriga to'g'ri keladi.

2018 yil yanvar-fevral oylarida shahar va tumanlar kesimida viloyat jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi (% da)




2019 yil yanvar-fevral oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsulotini ishlab chiqarish. (mlrd.so'm)

| Iqtisodiy faoliyat turlari | <i>2019 yil yanvar-fevral</i> | <i>2018 yil yanvar-fevral</i> |
|---|-----------------------------------|-----------------------------------|
| Iqtisodiy faoliyatning alohida turlari bo'yicha sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi | 1203,5 | 800,9 |
| Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash | 0,004 | 0,003 |
| <i>ulardan:</i> | | |
| Tog'-kon sanoatiga bog'liq boshqa faoliyat | 0,004 | 0,003 |
| Qayta ishlash faoliyati | 1151,9 | 758,8 |
| <i>undan:</i> | | |
| Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish | 182,1 | 128,7 |
| Ichimliklar, tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish | 21,4 | 20,6 |
| To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish | 354,2 | 236,8 |
| Kiyim ishlab chiqarish | 4,1 | 3,8 |
| Teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarish | 1,3 | 0,9 |
| Yog'och va po'kak buyumlar, pohol va to'qish uchun materilallari, ishlab chiqarish | 0,5 | 0,5 |
| Qog'oz va qog'oz mahsulotlarini ishlab chiqarish | 2,0 | 1,8 |
| Yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish | 0,1 | 0,1 |
| Neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish | 0,01 | 0,004 |
| Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish | 2,3 | 1,2 |
| Asosiy farmasevtika | 1,3 | 0,9 |
| Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish | 3,5 | 2,8 |
| Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish | 24,8 | 20,2 |
| Metallurgiya sanoati | 3,0 | 1,7 |
| Mashina va uskunalaridan tashqari tayyor buyumlar ishlab chiqarish | 15,7 | 13,5 |
| Kompyuter va elektron optikali mahsulotlar ishlab chiqarish | 0,001 | 0,001 |
| Elektr uskunalar ishlab chiqarish | 2,9 | 2,7 |
| Boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalar ishlab chiqarish | 19,6 | 18,4 |


| Iqtisodiy faoliyat turlari | 2019 yil yanvar-fevral | 2018 yil yanvar-fevral |
|---|---------------------------|---------------------------|
| Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish | 492,9 | 285,0 |
| Mebel ishlab chiqarish | 2,7 | 2,5 |
| Boshqa tayyor buyumlar ishlab chiqarish | 14,8 | 14,7 |
| Mashina va uskunalarni ta'mirlash va o'rnatish hamda tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish | 2,7 | 1,9 |
| Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash | 44,7 | 37,7 |
| Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish | 6,8 | 4,3 |

Faoliyat turlari bo'yicha mahsulot ishlab chiqarish yanvar-fevral oylarida Oziq-ovqat mahsulotlari, To'qimachilik mahsulotlari, avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar, Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sezilarli darajada o'sgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsuloti ishlab chiqarish indeksi.




Xorazm viloyatida 2019 yil yanvar-fevral oylarida ishlab chiqarishning texnologik tarkibi %da




2018 yil yanvar-fevral oylarida o'rta-yuqori texnologiyali ishlab chiqarish 38,4 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 2019 yil yanvar-fevral oylarida bu ko'rsatkich 43,0 foizga o'sgan bo'lsa, o'rta-quyi texnologiyali ishlab chiqarish 5,0 foizdan 4,1 foizga va quyi texnologiyali ishlab chiqarish 51,2 foizdan 48,5 foizga kamaygan.

Shuningdek, viloyat sanoatida yuqori texnologiyali tarmoqda 1,3 mlrd.so'mlik (*2018 yil yanvar-fevral oylarida 0,9 mlrd.so'm*), o'rta-yuqori texnologiyali tarmoqda 517,7 mlrd.so'mlik (*307,4 mlrd.so'm*), o'rta-quyi texnologiyali tarmoqda 49,8 mlrd.so'mlik (*40,1 mlrd.so'm*), quyi texnologiyali tarmoqda 583,2 mlrd.so'mlik (*410,4 mlrd.so'm*) mahsulotlar ishlab chiqarilgan.

2019 yil yanvar-fevral oylarida shahar va tumanlar kesimida aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi. (ming so'mda)




2018 yil yanvar-fevral oylarida shahar va tumanlar kesimida aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi. (ming so'mda)



2019 yil yanvar-fevral oylarida aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish viloyat boyicha 661,2 ming so'mni tashkil qilib, o'tgan yilga nisbatan o'sish sura'ti 112,5 foizga o'sishi kuzatildi. Shahar va tumanlar kesimida tahlil shuni ko'rsatmoqdaki, 2018 yil yanvar-fevral oylarida Xazorasp tumani 1384,6 ming so'mdan 2019 yil yanvar-fevral oylarida 2281,0 ming so'mga, Urganch shahri 1251,0 ming so'mdan 1626,0 ming so'mga, Bog'ot tumani 358,4 ming so'mdan 454,6 ming so'mga oshgan.


2019 yil yanvar-fevral oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish. (mlrd. so'm)




Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash, kichik biznes subektlari tomonidan zamonaviy texnologiyalar olib kelinishi natijasida viloyatda 669,3 mlrd.so'mlik xalq iste'mol tovarlari ishlab chiqarilib, 2018 yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 128,4 foizni tashkil etdi.

Xalq iste'mol tovarlari ishlab chiqarishda oziq-ovqat mahsulotlari 146,6 mlrd.so'mni va 522,7 mlrd.so'mlik nooziq-ovqat mollari ishlab chiqarilib, o'tgan 2018 yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan mos ravishdda o'sish sur'ati 107,9 foiz va 135,6 foizni tashkil qildi. Jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 55,6 foizni (2018 yil yanvar-fevral oylarida 65,1 foiz) tashkil qildi.


2019 yil yanvar-fevral oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish. (foizda)



2019 yil yanvar-fevral oylarida shahar va tumanlar kesimida viloyat jami sanoat ishlab chiqarish hajmida iste'mol tovarlari ulushi (% da)



**2019 yil yanvar-fevral oylarida shahar va tumanlar kesimida aholi jon boshiga
iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi. (ming so'mda)**



2019 yil yanvar-fevral oylarida aholi jon boshiga iste'mol tovarlari ishlab chiqarish viloyat boyicha 367,7 ming so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sura'ti 126,3 foizga o'sishi kuzatildi. Shahar va tumanlar kesimida tahlil shuni ko'rsatmoqdaki, 2018 yil yanvar-fevral oylarida Xazorasp tumani 1283,3 ming so'mdan 2019 yil yanvar-fevral oylarida 1792,9 ming so'mga, Urganch shahri 673,0 ming so'mdan 732,7 ming so'mga, Shovot tumani 95,4 ming so'mdan 98,3 ming so'mga, Yangiariq tumani 64,2 ming so'mdan 69,3 ming so'mga oshgani kuzatildi.